



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
VAZIRLAR MAHKAMASI HUZURIDAGI MIGRATSIYA AGENTLIGI
B U Y R U Q

5 avgust 2025 yil.

111-son

**Vakant lavozimlarga ishga qabul
qilish bo‘yicha ochiq mustaqil tanlov
o‘tkazish tizimini takomillashtirish
to‘g‘risida**

O‘zbekiston Respublikasining “Davlat fuqarolik xizmati to‘g‘risida”gi Qonuni, Mehnat kodeksi hamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 19-iyundagi “Davlat fuqarolik xizmatini yangi yondashuvlar asosida tashkil etish hamda professional va natijadorlikka yo‘naltirilgan davlat xizmatchilari korpusini shakllantirish, vakant lavozimlarga eng munosib kadrlarni tanlab olish bo‘yicha vosita va usullarni yanada kengaytirish hamda tanlov tizimining moslashuvchanligini yanada oshirishga qaratilgan chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-95-son Farmoniga muvofiq,

BUYURAMAN:

1. Quyidagilar:

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Migratsiya agentligi (keyingi o‘rinlarda - Agentlik) markaziy apparatining boshqaruv hamda hududiy filiallaridagi vakant lavozimlar uchun tanlov o‘tkazish bo‘yicha komissiya tarkibi (keyingi o‘rinlarda - Tanlov komissiyasi) **1-ilovaga** muvofiq, tanlov o‘tkazish tartibi to‘g‘risidagi Nizom (keyingi o‘rinlarda - Nizom) **2-ilovaga** muvofiq tasdiqlansin.

2. **Belgilab qo‘yilsinki**, Agentlik markaziy apparatining boshqaruv hamda hududiy filiallaridagi vakant lavozimlar uchun tanlov o‘tkazish mazkur buyruqning 2-ilovasi bilan tasdiqlangan Nizom talablari asosida amalga oshiriladi;

Nizom talablari O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti va Vazirlar Mahkamasi tomonidan tayinlanadigan yoki ular bilan kelishiladigan lavozimlar hamda texnik va

xizmat ko'rsatuvchi toifadagi lavozimlarga tatbiq qilinmaydi (qonun hujjatlarida boshqacha tartib belgilangan tartiblar bundan mustasno).

3. Agentlik direktori o'rinbosarlari (A.Xusanov, M.Kuranov), Inson resurslarini rivojlantirish va boshqarish bo'limi (O.Kodirov):

vakant lavozimlar uchun e'lonlarni Boshqaruv samaradorligi agentligining Davlat fuqarolik xizmati vakant lavozimlarining yagona ochiq portal (<https://vacancy.argos.uz>) orqali belgilangan tartibda joylashtirib borish;

Tanlov komissiyasi faoliyatini va vakant lavozimlar uchun ochiq mustaqil tanlov o'tkazilishini Nizom talablari asosida tashkil etish;

vakant lavozimlarga tanlovda ishtirok etish istagini bildirib ro'yxatdan o'tgan nomzodlarni saralash, test va suhbat bosqichlarini tashkil etish hamda ishga qabul qilish jarayonlarini ochiqlik, muqobillik va tenglik tamoyillari asosida o'tkazish;

Axborot xizmati va Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish va raqamlashtirish bo'limi bilan birgalikda vakant lavozimlar haqidagi ma'lumotlarni, test sinovlari va suhbat bosqichi natijalarini agentlikning rasmiy saytida va ijtimoiy tarmoqlardagi sahifalari keng yoritilishini ta'minlash vazifalari yuklatilsin.

4. Migratsiya agentligining 2024-yil 11-noyabrdagi 5-sonli buyrug'i o'z kuchini yo'qotgan deb hisoblansin.

5. Devonxona (Z.Mirzaaxmedov) bir kun muddatda mazkur buyruqni tegishli bo'limlar va tanlov o'tkazish komissiyasi a'zolariga yetkazilishini ta'minlasin.

6. Mazkur buyruq ijrosi nazoratini o'z zimmamda qoldiraman.

Direktor



B. Musaev